



MIDIERGONOMIK QARASHLAR - PEDAGOG VA RAHBARLARNING KOMPETENTLIGINI OSHIRIB BORISHI SIFATIDA

Eraliyev Xalimjon Alimbekovich

*Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o`qitish metodikasi kafedrasи mudiri dotsent.
eraliyev2020@gmail.com. tel: +99897 251-81-91*

Annotatsiya: Umumta'lim maktabi o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rbinbosarlarining midiergonomik madaniyatini rivojlantirish va hozirgi zamон mакtab rahbarining midiergonomik madaniyatini rivojlantirishda ergonomik bilim, ko`nikma va malakalarning dolzabligi asoslangan. O`quv ishlari bo`yicha direktor o`rbinbosarlarining midiergonomik madaniyatini rivojlantirish jarayoni mazmuni va amalga oshirish texnologik tizimi tarkibiga kiruvchi komponentlarni taqdim etilgan.

Tayanch so`z va tushunchalar: ergonomic yondashuv, midiergonomik madaniyat, ergonomic ta'lif muhiti, texnologik tizim.

МЕДИЭРГОНОМИЧЕСКИЕ СООБРАЖЕНИЯ – КАК СПОСОБ ПОВЫШЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ И РУКОВОДИТЕЛЕЙ

Аннотация: Развитие мидиэргономической культуры заместителей директоров по учебной работе общеобразовательной школы и развитие мидиэргономической культуры современного руководителя школы основано на потребности в эргономических знаниях, умениях и квалификациях. Представлено содержание процесса развития мидиргномомической культуры заместителей директора по учебной работе и компоненты, входящие в технологическую систему внедрения.

Ключевые слова и понятия: эргономический подход, эргономическая культура, эргономическая образовательная среда, технологическая система.

MEDIERGONOMIC CONSIDERATIONS - AS A WAY TO IMPROVE THE COMPETENCE OF TEACHERS AND LEADERS

Abstract: The development of the mid-ergonomic culture of deputy directors for educational work of a general education school and the development of the mid-ergonomic culture of a modern school leader is based on the need for ergonomic knowledge, skills and qualifications. The content of the process of development of the midergonomic culture of deputy directors for academic work and the components included in the technological implementation system are presented.

Key words and concepts: ergonomic approach, ergonomic culture, ergonomic educational environment, technological system.



KIRISH

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar bilan bir qatorda, ta'limga tizimini yanada rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati inson kapitalini rivojlantirish va intellektual salohiyatini oshirish shuningdek, ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzlucksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishni nazarda tutgan holda pedagoglarni yangi metodikalarga o'rnatish milliy markazi pedagog xodimlarning asosiy vazifalari sifatida tinglovchilarining o'quv fanlari, fan modullari va bloklari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni, kasbiy rivojlanishlarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni belgilab berdi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlari asosida ta'lim-tarbiya berish, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishdir. Tarbiyalanuvchilarining ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli jarayonda muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga erishishga yo'naltirilgan, ta'lim natijasini kafolatlaydigan pedagogik jarayon tashkil etish o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinosarlaridan midiergonomika bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga asoslangan madaniyatni talab etadi. Dars mashg'ulotlarining internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda masofadan turib amalga oshirish, muayyan loyiha asosida tashkil etish, aniq maqsadga erishishga yo'naltirilgan, ta'lim natijasini kafolatlaydigan pedagogik jarayonlarda eng samarali metodlardan foydalanish, ta'lim va tarbiya texnologiyalarini tanlash hamda dars jarayonlarini tashkil etish samaradorligini midiergonomik madaniyat ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kun ta'lim tizimini modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini



o`zgartirib, yangilab borishni ko`zda tutadi.

Ta'lismazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etgan holda o`quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondoshuvlarni hisobga olib, o`quv materiallarini midiergonomika talablariga muvofiq modellashtirish, yaxlit pedagogik jarayonning umumiylarini, konuniyat va tamoyillariga amal kilgan holda ta'limgartibiyatiga jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarining uyg'unligiga erishish, shuningdek ta'limgartibiyatiga jarayoni tarkibiy qismlarining o`zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olib ta'limgartibiyatiga jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish, o`qituvchi va o`quvchilarni bo`sh vaqtini samarali tashkil etish va o`tkazish, kreativ saloxiyatni, midiergonomika bo`yicha bilim va ko`nikmalarini shakillantirish va rivojlantirish dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Hozirgi zamon o`qituvchisi o`tgan asrdagi o`qituvchidan tubdan farq qiladi. Avvallari o`qituvchi uchun sinf xonasi, sinf taxtasi va bo`r, partalar ya`ni o`quvchilar ish o`rni bo`lishi kifoya edi. Xozirgi zamonda esa umumta`lim mакtablarining faoliyatini moddiy texnik bazasi, ta'limgartibiyatining turli tuman ko`rinishlarisiz tasauvvur qilib bo`lmaydi. Ushbu moddiy texnik baza va ta'limgartibiyatiga pedagogik va ergonomik talablar, meyoriy xujjatlar asosida ishlab chiqilib amaliyatga joriy etilgan.

O`quvchi shaxsining kamol topishiga, muayyan umumta`lim va politexnik bilim, malaka, ko`nikmalarini shakillanishiga xizmat qilish uchun ta'limgartibiyatining yaroqliligi masalasi pedagogik va ergonomik talablar orqali belgilanadi. Shuningdek, ta'limgartibiyatiga qo`yiladigan ergonomik talablar ushbu vositalardan foydalanish jarayonida namoyon bo`luvchi insonning antropometrik, fiziologik, psixofiziologik va psixologik xususiyatlarini e'tiborga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosarlari midiergonomik madaniyatini tashkil etuvchi eng asosiy yetakchi omillar o`quv ishlarini loyixalash va rejallashtirish, o`quv muhiti va mehnat gigienasi talablariga o`z faoliyatida to`la rioya qilish sifatlarining ularda mavjudligini ta'minlovchi bilim, malaka, fikrlash va

yo`nalganlik hisoblanadi. Agar direktor o`rinbosarida midiergonomik madaniyat shakllangan bo`lsa, demak, u hozirgi zamon maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonlari ob'ektlarini(naturalъ ob'ektlar; modellar; o`quv asboblari va jixozlari; tasvirli-ovozi ta'lim vositalari; ta'limning bosma vositalari; dastgoxlar, asobolar, uskunalar; hisoblash texnikasi vositalari; elektron maktab darsliklari; interъer, o`quvchi va o`qituvchi ish o`rni; yoritilganlik; xavfsiz va qulay isitilganlik; maktab mebeli; faoliyatni rejalashtirish; dars jadvali va shu kabilarni loyixalashtirish) ergonomik talablar asosida tashkillashtirish va ushbu talablarga og`ishmasdan amal qilishni o`z faoliyatida amaliyotga joriy eta oladi, ya`ni:

1. Maktabda o`quvchilar shaxsini kamol toptirishda xavfsiz va kulay ish o`rnlari va ta'lim muxiti sharoitini yaratadi.
2. O`qituvchining o`z ish o`rnida xavfsiz va kulay ta'lim muxiti sharoitida o`zining kasbiy vazifalarini samarali bajaradi.
3. Salomatlikni saqlash, texnologik va o`quv uskunalar bilan jixozlanishga qo`yiladigan ergonomik talablarga og`ishmay amal qilishi natijasida fan kabinetlari va maktab faoliyatini qulay va xavfsiz sharoitlarda yuritilishini ta'minlaydi.

Har bir fan kabinetining moddiy texnik bazasi, ta'limning texnik vositalari va jixozlaridan foydalanish, o`qituvchi va o`quvchilarning mashg'ulotlarni o`tkazish va bilim olish jarayonlarini xavfsiz va qulay pedagogik hamda midiergonomik talablar asosida tashkil etish o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosaridan kasbiy faollik va midiergonomik madaniyatni talab etadi.

Kasbiy faollik - ta'limning me'yoriy-xukukiy xujjatlari, boshkaruv maxorati, midiergonomika asoslarini, ish yuritish tizimi, ta'lim jarayonida va boshkaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, kasbiy kompetentligi, chet tillarini bilishda ifodalanadi.

Kasbiy faollik darajasi - kasbiy malaka darajasi, tegishli funktional vazifalar buyicha ish tajribasi, kasb soxasiga muvofikligi, egallab turgan lavozimi buyicha funktional vazifalarni bilishi, tashabbuskorligi, ishga ijodiy yondashuv darajasi, xolislik, oshkoraliq, shaxsiy va kasbiy kompetentlik darajalari, amaliy tajribasi, boshkaruv maxoratlari mavjudligi, ta'lim vositalari va moddiy texnik bazasiga



qo`yiladigan maxsus midiergonomik talablarning bilishi, kasbiy madaniyati, mas`uliyatliligi, jamoadagi mavkei va shu kabi bir qator sifatlar orqali belgilanadi.

Umumiy holda, pedagoglarni yangi metodikalarga o`rgatish milliy markazlarida o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rnbosarlarining midiergonomik madaniyatini takomillashtirishga ob`ektiv va sub`ektiv omillar sabab bo`ladi. Ob`ektiv omillarga davlatning yangi ta`lim siyosati, ta`lim sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, pedagoglarni yangi metodikalarga o`rgatish milliy markazining innovatsion faoliyat yo`nalishidagi tajribalarini keltirishimiz mumkin.

Sub`ektiv omillarga ijtimoiy-hududiy ehtiyoj, pedagoglarni yangi metodikalarga o`rgatish milliy markazi ta`lim-tarbiyaviy faoliyatining rivojlanish jarayoni, tinglovchilarining midiergonomik bilim, ko`nikma va malakalarga extiyoji, ilmiy salohiyatining rivojlanishi, ta`lim muassasasi salohiyatining o`sishi, ta`lim jarayonini tashkil etish va boshqaruv xususiyatlarining o`zgarishi misol bo`ladi.

XULOSA

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ta`lim tizimini takomillashtirish yo`nalishida amaliyotga tatbiq etilayotgan yangiliklar “Malaka oshirish jarayonida o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rnbosarlari midiergonomik madaniyatini takomillashtirish”ni ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bular o`z navbatida, ta`lim muassasasi rahbarlari va o`qituvchilari pedagogik jarayonlarni midiergonomik talablar asosida tashkil etish va boshqarish yo`nalishidagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta`sir ko`rsatuvchi omillarni aniqlash, mazkur jarayon ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish yo`nalishlaridagi qarorlarni qabul qilishda mavjud vaziyatlarni, sub`ektlarning moyilligi, ehtiyoji va qiziqishini o`rganishlari zarurligini taqozo etadi.

Hozirgi kunda esa ta`lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirishga ta`sir ko`rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida midierganomika talablarini o`zlashtirgan, ergonomik madaniyati rivojlangan malakali mutaxassislar zarurligi dolzarb muammo bo`lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1.Абдуллаев С.Х. Ўқитувчиларнинг эргономик маданиятини ривожлантириш мухитини ташкил этиш тизими ва технологияси // Замонавий таълим. Тошкент, 2021. 9-сон. Б.28-



2. Абдуллаев С.Х. Технологик таълим ўқитувчиларининг эргономик компетентлиги // Монография. – GlobeEdit is a trademark of Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group str. A. Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republik of Moldova Europe Printed at: see last page, 2022, ISBN:978-620-2-48669-9.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство/учебное пособие для магистратуры всех специальностей. - Т.: ТГПУ им. Низами, 2003. – 192 с.
4. Окулова Л.П. Педагогическая эргономика: монография. – М. Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2011. – 200 с.
5. Ўзбекистон республикаси халқ таълими вазирлиги олий ва ўрта маҳсус таълими вазирлиги маданият ва спорт ишлари вазирлиги. Таълим муассасаларидағи мебель, ўқув-лаборатория асбоб-ускуналари, компьютер техникаси, спорт анжомлари ва бошқа инвентарлардан самарали фойдаланиш ҳамда уларни сақлаш түғрисида йўриғнома (қўлланма). Тошкент – 2010.